



2023- yil yanvar-mart oylari uchun
dastlabki ma'lumot



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(76) 225-65-74



TASHQI SAVDO AYLANMASI





Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Surxondaryo viloyatida bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **75 406,4 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **30 432,3 ming AQSH** dollariga yoki **28,8 %** ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari)













Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi **43 801,7** ming AQSH dollariga (**24,4 %** ga kamaydi) va import hajmi **31 604,7** ming AQSH dollariga (**34,0 %** ga kamaydi). Hisobot davrida **12 197,0** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)

Pokiston TSA – 22 532,0 Eksport: 12 948,0 Import: 9 584,1  29,9 %	XXR TSA – 18 476,3 Eksport: 12 633,8 Import: 5 842,5  24,5 %	Rossiya TSA – 6 384,9 Eksport: 4 853,9 Import: 1 531,0  8,5 %	Turkiya TSA – 6 179,6 Eksport: 2 749,4 Import: 3 430,1  8,2 %	Qozog‘iston TSA – 5 033,3 Eksport: 1 328,7 Import: 3 704,6  6,7 %
Afg‘oniston TSA – 3 942,3 Eksport: 3 670,2 Import: 272,1  5,2 %	Tojikiston TSA – 2 708,8 Eksport: 1 281,4 Import: 1 427,4  3,6 %	Italiya TSA – 1 634,1 Eksport: 0,0 Import: 1 634,1  2,2 %	Hindiston TSA – 1 503,1 Eksport: 700,3 Import: 802,8  2,0 %	Eron TSA – 1 413,7 Eksport: 1 091,8 Import: 321,9  1,9 %

Surxondaryo viloyati jahonning **42** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Pokistonda (**29,9 %**), XXRda (**24,5 %**), Rossiyada (**8,5 %**), Turkiyada (**8,2 %**), Qozog'istonda (**6,7 %**), Afg'onistonda (**5,2 %**), Tojikiston (**3,6%**), Italiyada (**2,2 %**), Hindistonda (**2,0 %**) va Eronda (**1,9 %**) qayd etilgan.




Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN 14 TA DAVLAT

(2023- yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)

















Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **9** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, XXR, Afg'oniston, Pokiston, Rossiya, Eron, Qirg'iz Respublikasi, Ozarbajjon, BAA va Iroq davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **11** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari)

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Pokiston	10 343,8	21 345,1	22 532,0
	<i>Eksport</i>	7 832,1	8 219,3	12 948,0
	<i>Import</i>	2 511,6	13 125,8	9 584,1
	XXR	47 118,7	32 720,8	18 476,3
	<i>Eksport</i>	22 281,9	19 610,3	12 633,8
	<i>Import</i>	24 836,8	13 110,5	5 842,5
	Rossiya	10 901,5	17 132,2	6 384,9
	<i>Eksport</i>	4 413,6	6 114,8	4 853,9
	<i>Import</i>	6 487,9	11 017,4	1 531,0
	Turkiya	7 469,1	8 992,0	6 179,6
	<i>Eksport</i>	2 650,2	6 077,6	2 749,4
	<i>Import</i>	4 819,0	2 914,3	3 430,1
	Qozog'iston	10 739,6	7 210,0	5 033,3
	<i>Eksport</i>	1 733,3	5 428,6	1 328,7
	<i>Import</i>	9 006,2	1 781,4	3 704,6
	Afg'oniston	6 662,8	6 080,4	3 942,3
	<i>Eksport</i>	6 532,2	5 885,0	3 670,2
	<i>Import</i>	130,7	195,4	272,1
	Tojikiston	2 834,2	1 940,3	2 708,8
	<i>Eksport</i>	884,2	920,7	1 281,4
	<i>Import</i>	1 949,9	1 019,6	1 427,4
	Italiya	496,1	408,3	1 634,1
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	496,1	408,3	1 634,1
	Hindiston	470,3	1 219,6	1 503,1
	<i>Eksport</i>	-	208,4	700,3
	<i>Import</i>	470,3	1 011,2	802,8
	Eron	726,9	2 371,1	1 413,7
	<i>Eksport</i>	-	1 778,1	1 091,8
	<i>Import</i>	726,9	593,0	321,9

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Niderlandiya	134,6	33,4	896,0
	<i>Eksport</i>			0,2
	<i>Import</i>	134,6	33,4	895,8
	Qirg'iz Respublikasi	388,4	1510,9	451,6
	<i>Eksport</i>		1103,9	438,2
	<i>Import</i>	388,4	406,9	13,4
	Koreya Respublikasi	51,8	359,0	425,1
	<i>Eksport</i>			0,0
	<i>Import</i>	51,8	359,0	425,1
	BAA	22,4	196,6	408,8
	<i>Eksport</i>	22,4	196,6	381,3
	<i>Import</i>			27,4
	Belarus	531,2	467,8	401,4
	<i>Eksport</i>	89,0	303,1	122,9
	<i>Import</i>	442,1	164,7	278,5
	Ozarbajjon	90,0	518,1	364,3
	<i>Eksport</i>	90,0	518,1	364,3
	<i>Import</i>			
	Germaniya	4203,7	1043,6	360,1
	<i>Eksport</i>	26,0	540,7	161,9
	<i>Import</i>	4177,7	502,9	198,2
	Iroq	15,8	234,4	339,7
	<i>Eksport</i>	15,8	234,4	339,7
	<i>Import</i>			
	Turkmaniston	169,9	405,3	334,2
	<i>Eksport</i>	12,0	141,7	108,4
	<i>Import</i>	157,9	263,6	225,8
	Litva	108,2	86,0	304,7
	<i>Eksport</i>			0,1
	<i>Import</i>	108,2	86,0	304,7




SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-mart)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	75 406,4	71,2	100
Termiz sh.	17 506,8	99,2	23,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	1 607,2	38,4	2,1
Angor	2 894,4	76,7	3,8
Bandixon	1 180,8	108,7	1,6
Boysun	1 419,7	56,6	1,9
Muzrabot	2 236,6	76,4	3,0
Denov	11 424,6	62,4	15,2
Jarqo'rg'on	6 342,9	113,6	8,4
Qumqo'rg'on	1 974,4	79,9	2,6
Qiziriq	3 188,4	61,9	4,2
Sariosiyo	3 627,9	44,7	4,8
Termiz	9 453,2	67,6	12,5
Uzun	5 303,1	104,7	7,0
Sherobod	3 982,1	42,4	5,3
Sho'rchi	3 121,6	57,1	4,1

Eng yuqori hajm, ming AQSH dollari




Eng quyi hajm, ming AQSH dollari



Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Termiz shahri **23,2 %** ulush bilan **17 506,8** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bandixon tumanida **1,6 %** ulush bilan **1 180,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **21,0** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,8** % ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-mart oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,8** % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **79,0** % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-martholatiga ko'ra, **15 829,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **8 585,0** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **7 244,2** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)

Rossiya Federatsiyasi

TSA – 6 384,9
Eksport – 4 853,9
Import – 1 531,0



Qozog'iston

TSA – 5 033,3
Eksport – 1 328,7
Import – 3 704,6



Tojikiston

TSA – 2 708,8
Eksport – 1 281,4
Import – 1 427,4



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 451,6
Eksport – 438,2
Import – 13,4



Belarus Respublikasi

TSA – 401,4
Eksport – 122,9
Import – 278,5



Ozarbajjon

TSA – 364,3
Eksport – 364,3
Import – 0,0



Turkmaniston

TSA – 334,2
Eksport – 108,4
Import – 225,8



Armaniston

TSA – 76,6
Eksport – 76,6
Import – 0,0



Ukraina

TSA – 63,5
Eksport – 0,1
Import – 63,4



Moldova Respublikasi

TSA – 10,6
Eksport – 10,6
Import – 0,0



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**40,3 %**), Qozog'iston (**31,8 %**) hamda Tojikiston (**17,1 %**) davlatlari bilan qayd etildi.




SURXONDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni **165** taga yetdi va ular tomonidan **43 801,7** ming AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **24,4 %** ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-mart, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	57 932,1	43 801,7	121,6	75,6	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	23 931,4	23 412,9	149,6	97,8	41,3	53,5
Ichimliklar va tamaki	-	408,3	-	-	-	0,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	2 675,8	1 789,5	54,5	66,9	4,6	4,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	12,9	-	2,5 m.	-	-	-
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	211,0	-	-	-	0,4	-
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	58,5	47,9	104,2	81,8	0,1	0,1
Sanoat tovarlari	30 114,0	16 840,9	120,6	55,9	52	38,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	5,5	42,3	4,2	7,8 m.	-	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	132,1	260,8	12,4	197,4	0,2	0,6
Xizmatlar	790,9	999,1	2,2 m.	126,3	1,4	2,3

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **97,7 %** ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**53,5 %**), sanoat tovarlari (**38,4 %**) va nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari (**4,1 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-mart)

XSST bo‘limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	20 141,2	88,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3 260,1	10,5 m.
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7,2	1,2
Xayvonlar uchun ozuqalar (dekabrdalanmagan donlar-dan tashqari)	4,1	-
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	0,4	-
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	408,3	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
Xayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	773,1	295,3
Moy olinadigan urug‘lar va moy olinadigan mevalar	473,5	32,4
To‘qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari	440,4	69,9
56 bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo (ko‘mir,neft va qimmat baho toshlardan tashqari)	102,5	32,2
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar		
Bo‘yoqlar, taninlar va bo‘yoqlar	47,8	2,4 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashina va uskunalar, boshqa nomga ega bo‘lmagan va boshqa nomdagi mashinalar qismlari.	39,5	63,5 m.
Avtomobililar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	2,8	128,6


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	16 118,1	55,5
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	407,7	2,6 m.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	304,6	92,5
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	7,5	0,9
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	3,0	8,6
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	400,9	160,3
Moliyaviy xizmatlar	295,1	192,3
Sayohat	187,3	55,7
Boshqa biznes xizmatlari	115,8	2,3 m.
Turli xil tayyor buyumlar		
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	169,7	992,6 m.
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	55,2	47,4
Poyabzal	35,5	34 m.
Har xil tayyor mahsulotlar	0,3	7,3 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlarga **8 585,0** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning **19,6 %** ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlari-miz, Pokiston, XXR, Rossiya, Afg'oniston, Turkiya, Qozog'iston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **90,1 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI

(2023- yil yanvar-mart, % da)





SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-mart, yillar kesimida)*


Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Pokiston	8 219,3	12 948,0	104,9	157,5	2	1
XXR	19 610,3	12 633,8	88,0	64,4	1	2
Rossiya	6 114,8	4 853,9	138,5	79,4	3	3
Afg'oniston	5 885,0	3 670,2	90,1	62,4	5	4
Turkiya	6 077,6	2 749,4	229,3	45,2	4	5
Qozog'iston	5 428,6	1 328,7	313,2	24,5	6	6
Tojikiston	920,7	1 281,4	104,1	139,2	9	7
Eron	1 778,1	1 091,8	-	61,4	7	8
Hindiston	208,4	700,3	-	336,1	14	9
Qirg'iz Respublikasi	1 103,9	438,2	-	39,7	8	10
BAA	196,6	381,3	879,6	194,0	15	11
Ozarbayjon	518,1	364,3	575,6	70,3	11	12
Iroq	234,4	339,7	1 482,8	144,9	13	13
Vetnam	-	245,6	-	-	-	14
Germaniya	540,7	161,9	2 079,6	30,0	10	15
Belarus	303,1	122,9	340,5	40,6	12	16
Turkmaniston	141,7	108,4	1 176,5	76,5	16	17
Polsha	60,9	98,2	200,8	161,4	21	18
Armaniston	-	76,6	-	-	-	19
Gruziya	79,0	30,8	220,9	39,0	20	20




SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-mart)*

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	43 801,7	75,6	100,0
Termiz sh.	2 052,7	106,8	4,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	1 060,3	65,7	2,4
Angor	2 260,7	61,8	5,2
Bandixon	1 162,9	154,0	2,7
Boysun	1 225,7	105,2	2,8
Muzrabot	1 887,9	69,2	4,3
Denov	6 532,3	50,2	14,9
Jarqo'rg'on	4 464,7	99,4	10,2
Qumqo'rg'on	1 855,1	83,4	4,2
Qiziriq	2 783,0	200,7	6,4
Sariosiyo	1 513,6	196,9	3,5
Termiz	6 860,6	78,7	15,7
Uzun	3 492,2	72,3	8,0
Sherobod	3 734,7	47,4	8,5
Sho'rchi	2 772,6	106,9	6,3

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyatimiz eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Termiz tumani **15,7 %** bilan **6 860,6** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Oltinsoy **2,4 %** bilan **1 060,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-mart oylarida **15 212,2** tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **49,3 %** ga yoki **14 766,3** tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**51,2 %**), XXR (**14,5 %**), Afg'oniston (**10,0 %**), Rossiya (**7,7 %**) hamda Eron (**5,4 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **20 317,8** ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **17,3 %** ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi **46,4 %** ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-mart, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-mart)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
Pokiston	3 374,5	10 410,1	51,2
XXR	2 935,0	2 953,0	14,5
Afg'oniston	2 713,0	2 038,5	10,0
Rossiya	1 442,5	1 572,2	7,7
Eron	917,5	1 091,8	5,4
Qozog'iston	2 543,6	730,0	3,6
Iroq	207,0	335,5	1,7
BAA	160,9	222,5	1,1
Ozarbajjon	148,0	185,4	0,9
Germaniya	73,1	161,4	0,8
Turkiya	92,0	124,5	0,6
Belarus	127,8	122,6	0,6
Tojikiston	251,9	101,4	0,5
Polsha	77,5	98,0	0,5
Turkmaniston	68,9	95,1	0,5
Gruziya	22,0	30,8	0,2
Bolgariya	20,3	18,7	0,1
Qirg'iz Respublikasi	22,0	15,9	0,1
Moldova Respublikasi	15,0	10,5	0,1

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-mart oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **51,2 %**).



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.







To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-mart oylari yakuni bo‘yicha **16 577,7** ming AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **37,8** % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **43,6** % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**79,3%**), paxtadan gazlamalar (**13,2** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning **11** ta davlatiga eksport qilindi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari)

		2022- yil	2023- yil
Jami:		29 405,9	16 577,7
	Paxtadan yigirilgan ip	25 116,3	13 153,5
	Paxtadan gazlamalar	3 058,7	2 191,1
	Ipak va ipak mahsulotlari	1 108,4	1 036,6
	Gilamlar	-	140,2
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	116,5	55,2
	Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	6,0	1,1

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari)



	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur‘ati, % da
XXR	19 065,3	9 680,8	50,8
Turkiya	5 566,8	2 580,4	46,4
Rossiya	3 129,9	2 454,9	78,4
Tojikiston	200,0	629,8	3,2 m.
Pokiston	851,9	599,0	70,3
Vetnam	-	245,6	-
BAA	86,1	158,8	184,4
Qirg‘iz Respublikasi	99,2	106,7	107,6
Armaniston	-	76,6	-
Ozarbayjon	-	33,6	-
Afg‘oniston	23,4	11,7	49,9
Germaniya	218,6	-	-
Eron Islom Respublikasi	164,8	-	-




To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi XXR (**58,4 %** – **9 680,8** ming AQSH dollari) va Turkiya (**15,6 %** – **2 580,4** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **999,1** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **2,3** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **26,3** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**40,1** %), moliyaviy (**29,6** %), safarlar (turizm) (**18,8** %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**11,6** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-mart oyida import hajmi **31 604,7** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **66,0 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**39,2 %**), mashinalar va transport asbob-uskunolari (**37,3 %**) hamda sanoat tovarlari (**16,6 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **16 299,7** ming AQSH dollariga kamaydi va **31 492,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **111,8** ming AQSH dollariga yetdi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-mart, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	47 906,6	31 604,7	70,1	66,0	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15 994,5	12 391,8	235,6	77,5	33,4	39,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 578,8	178,4	72,7	11,3	3,3	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	190,6	213,7	51,3	112,1	0,4	0,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	88,4	-	-	-	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 433,3	1 099,1	143,7	76,7	3	3,5
Sanoat tovarlari	11 091,1	5 259,9	34,7	47,4	23,2	16,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	17 228,2	11 795,1	70,9	68,5	35,9	37,3
Turli xil tayyor buyumlar	276,1	466,5	19,4	169,0	0,6	1,4
Xizmatlar	114,0	111,8	249,2	98,1	0,2	0,4



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-mart)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	10 185,7	72,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 013,4	2,2 m.
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	110,2	27,2
Turli xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlari	59,3	3,0 m.
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	23,1	183,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	122,0	-
Probka va yog'och taxtalar	39,3	65,4
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo (ko'mir,neft va qimmat baho toshlardan tashqari)	9,6	21,8
Xayvonlar va o'simliklardan olinadigan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari,boshqa joyda tavsiflanmagan	7,4	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	213,7	112,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	662,2	89,0
Birlamchi bo'lmagan plastmassalar	118,6	5,8 m.
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddolari; tualetga	78,5	3,4 m.
Noorganik kimyoviy moddalar	75,4	67,0 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	60,8	68,7
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	44,1	14,2
Organik kimyoviy moddalar	40,1	28,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	16,7	22,9
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	2,8	9,1
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	309,6	151,4
Yo'l aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	72,9	139,1
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	65,3	3,7 m.


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	14,0	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari blokli binolar, armatura va mahkamlash	2,4	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar	2,0	167,6
Poyabzal	0,2	59,5
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1 849,5	20,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 423,1	121,0
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 277,1	16,2 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	431,7	136,6
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	196,5	71,6
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	67,7	81,3
Rangli metallar	13,9	160,9
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,4	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	7 881,3	65,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 843,8	97,1
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	1 297,8	81,3
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	435,1	172,6
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	239,1	75,8
Metallni qayta ishlash mashinalari	87,8	4,9 m.
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunalar	9,9	2,6 m.
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblar va uskunalar	0,3	-



2023- yil yanvar-mart natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **22,9 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,0 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-mart oylarida viloyatimiz **33** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Pokiston, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Italiya, Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston) jami importning **3/4** qismini tashkil etdi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-mart, % da)





SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)


Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Pokiston	13 125,8	9 584,1	5,2 m.	73,0	1	1
XXR	13 110,5	5 842,5	52,8	44,6	2	2
Qozog'iston	1 781,4	3 704,6	19,8	2,1 m.	5	3
Turkiy	2 914,3	3 430,1	60,5	117,7	4	4
Italiya	408,3	1 634,1	82,3	4,0 m.	10	5
Rossiya	11 017,4	1 531,0	169,8	13,9	3	6
Tojikiston	1 019,6	1 427,4	52,3	140,0	6	7
Niderlandiya	33,4	895,8	24,8	26,8 m.	26	8
Hindiston	1 011,2	802,8	2,2 m.	79,4	7	9
Koreya Republikasi	359,0	425,1	6,9 m.	118,4	12	10
Eron	593,0	321,9	81,6	54,3	8	11
Litva	86,0	304,7	79,5	3,5 m.	20	12
Belarus	164,7	278,5	37,2	169,1	17	13
Afg'oniston	195,4	272,1	149,5	139,3	15	14
Turkmaniston	263,6	225,8	167,0	85,7	13	15
Germaniya	502,9	198,2	12,0	39,4	9	16
Chexiya	111,5	185,4	8,8 m.	166,3	18	17
Shveysariya	7,3	119,4	6,4	16,4 m.	28	18
AQSh	42,7	79,2	-	185,6	23	19
Malayziya	0,2	78,4	-	364,8 m.	36	20




SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-mart)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	31 604,7	66,0	100
Termiz sh.	15 454,1	98,3	48,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	547,0	21,2	1,7
Angor	633,6	541,9	2,0
Bandixon	17,9	5,4	0,1
Boysun	194,0	14,4	0,6
Muzrabot	348,7	174,9	1,1
Denov	4 892,2	92,5	15,5
Jarqo'rg'on	1 878,1	172,0	5,9
Qumqo'rg'on	119,3	48,4	0,4
Qiziriq	405,4	10,8	1,3
Sariosiyo	2 114,3	28,8	6,7
Termiz	2 592,6	49,3	8,2
Uzun	1 810,9	767,3	5,7
Sherobod	247,4	16,3	0,8
Sho'rchi	349,0	12,2	1,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Termiz shahri **48,9** % bilan **15 454,1** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa **0,1** % bilan, Bandixon **17,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.